



HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF DRAWING

Orifaxon Ergasheva Kholmurodovna¹

¹ Kokand State Pedagogical Institute Lecturer at the Department of Fine Arts and Engineering Graphics

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5059378>

ARTICLE INFO

Received: 20th June 2021

Accepted: 25th June 2021

Online: 30th June 2021

KEY WORDS

Drawing, Gospar Monge, Monge method, development in the republic.

ABSTRACT

This article provides information about the history of the development of the drawing, its founder, the order of execution.

CHIZMACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

Orifaxon Ergasheva Xolmurodovna¹

¹ Qo`qon Davlat Pedagogika institute Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasida o`qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-iyun 2021

Ma`qullandi: 25-iyun 2021

Chop etildi: 30-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Chizma, Gospar Monj, Monj usuli, Respublikamizda rivojlanishi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chizmachilikning rivojlanish tarixi, uning asoschisi haqida, bajarilish tartibi to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan.

Inson faolivatining barcha sohalarida yetarli yuqori darajada fazoviy tasavvur qilish va fazoviy tafakkur etish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur. H ech bir konstruktor (loyihachi) ongida murakkab mexanizm yoki mashinani to`liq (ipidan ignasigacha) ko`z oldiga keltira olmasligi mumkin. Ammo loyihalash jarayonida turli chizmalar chizish, hisob-kitob qilish orqali ba`zi bir elementlarning umumiy ko`rinishini,

boshqa jihatlamining aniqlay boshlash mumkin. Natijada konstruksiyadagi asosiy g`oya katta o`zgarishlarga olib kelishi ehtimol.

Bajarilayotgan chizma (texnik rasm) va fasoviy tafakkur etish o`zaro dialektik munosabatda bo`lgani uchun ular bir-birini qiziqarli g`oyalar bilan to`ldirib boradi. Natijada fazoviy tafakkur qilish chizmani ortda qoldirib, o`ylagan obrazni qog`ozda



chizish bilan uni mustahkamlaydi. Bunday qilish orqali o'ylagan obrazni aniqlashga va ba'zi bir elementlarning o'zaro munosabatlarini tekshirishga, keyinchalik konstruksiyalashni davom ettirishga, fazoviy tafakkur etishga oziqa beradi. Yetarli darajada tez, aniq va qog'ozda xatosiz tasvirlashni eplay olmaydigan odam, ongidagi faraz qilayotgan obrazlarni ham tezda qog'ozga tushirishda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda kompyuterlaridan foydalanishda tezkor faraz qilish va unga ongidagi obrazlarni zudlik bilan kiritishni talab qiladi. Shu sababli har bir odam fazoviy tasavvur va tafakkur etish bilan bir qatorda ongida faraz qilayotgan narsani qog'ozga tushirish mahoratini ham egallashi zarur. Yuqoridagi salohiyatni belgilovchi parametrlardan biri talaba va o'quvchining grafik savodxonligi hisoblanadi. Loyihalash jarayonida ishtirok qiluvchi talaba albatta chizmalarni tuzish va uni o'qish malakasiga ega bo'lishi shart. Berilgan shart asosida ijodiy fikrlash, tasavvur qilish, loyihalash va uni qog'ozga tushirish uchun chizma achilik fanining qonun-qoidalarini bilish shart bo'ladi.

XVIII asr oxirida fransuz olimi Gaspar Monj o'zidan oldin yashab o'tgan olimlarning ilmiy asarlarini o'rganib, chizmachilik fanining nazariy asosi hisoblangan «Tasviriy geometriya» («Chizma geometriya») kitobini yozdi. Bu kitob 1798-yilda nashrdan chiqib, tez orada butun Evropaga yoyildi va texnikada keng tadbir qilina boshlandi. G. Monj o'zaro perpendikulyar bo'lgan ikki tekislikka to'g'ri burchak ostida (ortogonal) proyeksiyalashning asoschisi hisoblanib, bu usul hozirgacha «Monj usuli» deb yuritiladi. Amalda foydalaniladigan va o'lchash bilan

bog'liq bo'lgan proyeksiyon, mashinasozlik, arxitektura-qurilish va boshqa barcha chizmalar «Monj usuli»da bajariladi. Respublikamizda oddiy uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib to ulkan samolyotlarni ishlab chiqarish va qurilish ishlarini bajarishda «Monj usuli» asosida standart bo'yicha tayyorlangan chizmalardan foydalanadilar. Masalan, Toshkent aviasozlik zavodida ishlab chiqarilayotgan IL-76M rusumli transport samolyotini yig'ishda, yuzlab malakali ishchi va injener-texnik xodimlar bir nechta mamlakatda standart chizmalar asosida tayyorlangan ikki mingga yaqin detal va uzellardan foydalanadilar. Yoki Respublikamizda qad rostlayotgan murakkab konstruksiyali ko'p qavatli muhtasham binolar ham arxitektura-qurilish chizmalari asosida qurilmoqda. Respublikamizda tasvirlarni o'rganish «Cizmachilik» va «Cizma geometriya» nomlari bilan 1931-yildan boshlab maktab va oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu soha bo'yicha ellikka yaqin fan doktori va fan nomzodlari yetishib chiqdilar. Bu fanlarni rivojlantirish hamda o'qitish va uni takomillashtirishda o'zbek pedagog olimlaridan R. Xorunov, Y. Qirg'izboyev, E. Sobitov, I. Rahmonov, Sh. Murodov, A. Akbarov, J. Yodgorov, L. Hakimov, R. Ismatullayev, P. Odilov va metodist olimlardan A. Umronxo'jayev, E. Ro'ziyev kabilarning hissalariga katta bo'ldi. Yuqorida aytilganlardan, mamlakatimiz hududida qoyatoshlarga o'yib ishlangan grafik tasvir (chizma)lar hozirgi kunga kelib mutaxassislar tomonidan qanchalik mukammal darajada tayyorlanayotganligi ayon bo'ladi. Binobarin aytganimizdek, tasvirga bo'lgan ehtiyoj ibtidoiy jamoa tuzumi davridan paydo bo'la boshlagan. Bu davrda dastlab kishilar birbirlari bilan faqat og'zaki nutq yordamida fikr almashganlar.



Keyinchalik yirik urug' va qabila jamoalarining tarkib topishi bilan og'zaki nutqni uzoqqa etkazish ehtiyoji tug'ilgan. Bunday ehtiyojni tasvirlar bajargan. Kishilar tasvir vositasida o'zaro fikr almashgan. Insonning uncha murakkab bo'lmagan grafik tasvirlarni qoya toshlarga o'yib ishlay olishi birinchi bor xat

yoziqning yaratilishiga imkoniyat yaratdi. Qadimgi xatlarda so'z va harflar bo'lmagan. Narsa haqidagi fikrlar o'sha narsaning tasviri orqali uzatilgan. Bunday «rasm» xatlar yordamida jang, harbiy yurishlar va hayvonlarni ovlash haqida hikoyalar yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yu.Qirg'izboyev va boshqalar. Mashinasozlik chizmachilik kursi. T., «O'qituvchi», 1989.
2. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. T.

Yangi asr avlodi. 2010.

3. E.A.Vasilenko va boshqalar. Praktikum po chercheniyu. Moskva, «Prosvesheniye», 1982.
4. Sh.K.Murodov va boshqalar. «Chizmachilik praktikumi». Toshkent, "TDPU rizografi", 2009.
5. S.K.Bogolyubov, A.I.Voinov. Texnikaviy chizmachilik kursi Toshkent, «O'qituvchi», 1976.
6. Y.N. Baxanov. Texnikaviy chizmachilikdan topshiriqlar to'plami. Toshkent, «O'qituvchi», 1982.